

## PLAGIATDAN QOCHISH: ILMIY VA ETIK ASOSLAR

*Ramazonova Bahora Zafar qizi*

*Samarqand Davlat Chet tillari instituti talabasi*

*[bahoraramazonova12@gmail.com](mailto:bahoraramazonova12@gmail.com)*

*Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar Ne'matillayevna*

*Annotsatsiya: Plagiat – bu boshqa shaxslar tomonidan yaratilgan materiallarni, g'oyalarni o'sha insonning ruxsatisiz va manba ko'rsatmasdan o'z ishlari sifatida taqdim etishdir. Bu, nafaqat akademik va ilmiy sohada, balki professional va ijodiy faoliyatda ham muammo hisoblanadi. Ushbu maqola plagiatning turlarini, undan qochishning samarali usullarini va plagiatni aniqlash uchun mavjud vositalarni tushuntirib o'tadi. Plagiatni oldini olish etik va ilmiy muvaffaqiyatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, shuningdek, uni oldini olish uchun har bir tadqiqotchiga va talabaga bir qator maslahatlar beriladi.*

*Kalit so'zlar: plagiat, manba ko'rsatish, iqtibos olish, parafrezlash, plagiatni aniqlash, original g'oyalar.*

### **Kirish**

Plagiat ilmiy va professional dunyoda juda jiddiy masala bo'lib, u axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi va mualliflik huquqlarini buzadi. Plagiatning oldini olish nafaqat ilmiy faoliyatning asosiy tamoyillaridan biri, balki professional obro'ni saqlash va ilmiy yutuqlarni qo'lga kiritish uchun ham kerakli hisoblanadi. Hozirgi kunda internetning keng tarqalishi bilan plagiatning turli shakllari ham kengaygan. Shu sababli, har bir ilmiy ishni yaratishda plagiatdan qochish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada plagiatni aniqlash va undan saqlanish yo'llari, shuningdek, plagiatning oqibatlarini ko'rib chiqamiz

### **Plagiatning Turlari**

Plagiat turli shakllarda bo'lishi mumkin. Ularni quyidagicha ajratish mumkin:

**To'liq plagiat:** Boshqa muallifning butun asarini yoki uning katta qismini o'zgartirmay, faqat o'z ismini qo'yish orqali taqdim etish. Masalan, biror ilmiy maqolani butunlay nusxalab, uni o'zi ishi sifatida taqdim etish. Bu to'liq ko'chirish hisoblanadi.

**Qisman plagiat:** Bu turda, muallifning asaridan kichik qismlarini olib, ularni o'zgartirish orqali o'z ishi sifatida taqdim etish. So'zlar va jumlar o'zgartirilgan bo'lsa ham, mazmun va g'oya saqlanadi. Bunda ba'zi qismlari ko'chirib o'tkaziladi lekin to'liq emas.

**Parafrezlash orqali plagiat:** Biror muallifning fikrini o'z so'zlari bilan ifodalashda, agar manba ko'rsatilmasa, bu ham plagiat hisoblanadi. Parafrazlashning maqsadi asl g'oyani yangi tarzda taqdim etishdir, lekin manba ko'rsatilishi shart.

**O'zlashtirish orqali plagiat:** Bu, oldingi ishlardan yoki o'zining avvalgi ishidan foydalanish va ularni yangi asar sifatida taqdim etishdir. Bu holat ham plagiat sifatida baholanadi. Bu holatda mazmun ko'chirilgan hisoblanadi.

**Avtomatik plagiat:** Internetda mavjud materiallarning avtomatik tarzda nusxalanishi yoki o'zgartirilishi ham plagiatga olib kelishi mumkin. Misol uchun, ba'zi dasturlar yoki tizimlar internetdagi mavjud asarlardan foydalanadi va mualliflikni ko'rsatmangani uchun plagiat hisoblanadi. Hozirgi kunda bu yaxshigina ommalashgan.

## 2. Plagiatdan Qochish Yo'llari

Plagiatdan saqlanish uchun bir nechta samarali usullar mavjud. Maqola quyida ular haqida so'z yuritamiz:

### 1. To'g'ri Manba Ko'rsatish

Plagiatni oldini olishning eng asosiy usuli – har doim ishlatilgan manbalarni to'g'ri ko'rsatishdir. Agar siz biror fikrni, g'oyani yoki ma'lumotni boshqadan olgan bo'lsangiz, manbani ko'rsatishingiz kerak. Bu sizning ilmiy yoki ijodiy ishlarinigizni mustahkamlashga yordam beradi va plagiatni oldini oladi.

### 2. Iqtibos Olish

Agar siz o'zgartirmasdan biror fikrni ishlatmoqchi bo'lsangiz, uni iqtibos sifatida keltirishingiz kerak. Iqtibos olishda matnning to'liq va aniq bo'lishi, shuningdek, manbaning to'g'ri ko'rsatilishi zarur. Bu nafaqat plagiatdan saqlanishga yordam beradi, balki sizning ishizning ishonchliligini ham oshiradi. Ishonchlilik ham muhim hisoblanadi.

### **3. Parafrezlash**

Boshqa muallifning fikrini o'z so'zlaringiz bilan taqdim etish, ya'ni parafrezlash – bu plagiatdan qochishning samarali usuli. Parafrezlashni amalga oshirishda, asl g'oya o'zgartirilmasdan, so'zlar va tuzilma o'zgartiriladi. Biroq, parafrezlashda ham manba ko'rsatilishi kerak.

### **4. Plagiatni Tekshirish Xizmatlaridan Foydalanish**

Bugungi kunda plagiatni aniqlash uchun turli xil onlayn vositalar mavjud. Turnitin, Grammarly va Copyscape kabi vositalar sizning ishlaringizni boshqa manbalar bilan taqqoslab, plagiatni aniqlashda yordam beradi. Ushbu vositalar yordamida siz o'z ishlaringizni tekshirishingiz va plagiatni oldini olish uchun kerakli choralaringizni ko'rishingiz mumkin.

### **5. Original G'oyalar Yaratish**

Plagiatdan eng yaxshi qochish usuli bu – o'z g'oyalarini yaratishdir. O'z fikrlaringizni ishlab chiqish, ilmiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lish va plagiatdan qochish uchun eng yaxshi usuldir. O'z g'oyangizni yaratish nafaqat etik jihatdan to'g'ri, balki ilmiy ishning original va yangi bo'lishiga ham yordam beradi.

### **3. Plagiatning Oqibatlari**

Plagiatning oqibatlari juda jiddiy. Akademik sohada plagiat qilgan talabalar yoki tadqiqotchilar uchun imtihonlardan nol baho olish, kurs ishlaridan rad etish, dissertatsiya yoki diplom ishlarini bekor qilish kabi jazolar mavjud. Shuningdek, ilmiy jurnallarda plagiat ma'lumotlarni nashr etishdan bosh tortish yoki maqolani to'liq rad etish mumkin.

Plagiatning professional sohada ham salbiy oqibatlari mavjud. Masalan, mualliflik huquqlarini buzish, jinoiy javobgarlik va moliyaviy jarimalar yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, shaxsiy va professional obro'ga jiddiy zarar yetishi

mumkin. Plagiatning oldini olish uchun o'z ishlaringizni yaratish va boshqalarning mehnatini hurmat qilish juda muhim.

**Xulosa**

Plagiatdan qochish nafaqat akademik va ilmiy ahamiyatga ega, balki har bir shaxsning professional va etik obro'sini saqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Plagiat insonlar obro'siga ham putur yetkazadi. Plagiatni oldini olish uchun manba ko'rsatish, iqtibos olish, parafrezlash va plagiatni tekshirish vositalaridan foydalanish kabi usullar mavjud. O'z g'oyalarini yaratish va ilmiy ishlarda original yondashuvni qo'llash plagiatning oldini olishning eng samarali usulidir.

t

- 2. *Turnitin.com* - Plagiatni tekshirish vositasi.
- 3. *Grammarly.com* - Plagiat va grammatika tekshiruvi uchun vosita.
- 4. *The MLA Handbook* (9th edition). Modern Language Association of America, 2021.

,

W

.

J

r

.

,

&

W

h

i

t